

## TALABALANING MUSTAQIL TA'LIM OLIHIDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Farg'ona politexnika instituti  
Tillabayev Boburjon Shavkatjon o'g'li  
"Oliy matematika" kafedrası assistenti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'lim olishida o'z-o'zini rivojlantirish metodikasi berilgan bo'lib ba'zi xorijiy tajribalar ilmiy tahlil qilingan va tushuntirilgan.

**Аннотация:** в данной статье представлена методика саморазвития в самостоятельном обучении студентов, а также научно проанализирован и объяснен некоторый зарубежный опыт.

**Annotation:** in this article, the method of self-development in independent education of students is given, and some foreign experiences are scientifically analyzed and explained.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, o'z-o'zini rivojlantirish, kredit-modul, reja va "Yutuq-yutuq" menejmenti.

**Ключевые слова:** самостоятельное образование, саморазвитие, кредитный модуль, план и управление «Win-Win».

**Keywords:** independent education, self-development, credit module, plan and "Win-Win" management.

Bugungi kunda barcha oliy ta'lim muassalarida joriy etilgan kredit-modul tizimi tufayli talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun soatlar ko'pligi sababli talabalardan tizimli va mustaqil ishlash talab qilinmoqda. Bu jarayonda mustaqil ta'lim olish metodlarini o'z-o'zini rivojlantirish metodlari bilan birgalikda foydalanish natijasida o'z sohasida yetuk va hayotiy barcha vaziyatlarni chuqur tahlil qila oladigan kadrlar yetishib chiqadi.

"Getting things done" tizimidan foydalanish ortiqcha kuch sarflamasdan, hech qanday qiyinchiliklarsiz va vaqtdan unumli foydalangan holda yuksalish sari yo'l ochishdir. Bu tizim-uskunalar majmui hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib bu tizimdan nafaqat ishda balki turmushda ham foydalanila boshlangan.

"Getting things done" tizimini ishga tushurish uchun: [1,72]

Birinchidan: barcha ishlar, vazifalar, uchrashuvlarni tezlik va puxtalik bilan rejalashtirilgan hujjatlar kerak bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakki, bu tizim sizning hayolingizni band qilishi kerak emas.

Ikkinchidan: o'zingizni doimo kelgusi harakat uchun tayyor reja olib yurishga o'rgating.

Masalan, ish faoliyatingiz bo'yicha uchrashuv belgilangan bo'lsa, uchrashuv davomida nimalarga e'tibor qaratishingiz, qanday suhbatlashishingiz haqida eng kichik qismlarigacha yozib oling. Shuningdek, iloji boricha suhbatni qisqaroq qiling. Bu orqali miyangizda ortiqcha ma'lumotlarni saqlab turishingiz shart bo'lmaydi. Ma'lumotlarni saqlash uchun ko'p narsalardan foydalanish mumkin: yon daftarcha, qog'ozchalar, elektron xatlar yoki ovozli tasmalar. Eng asosiysi nima qayerdaligini bilsangiz bo'ldi.

Muhim uchrashuvlar yoki muddati belgilangan vazifalarni saqlash uchun eslatish tizimidan foydalanishingiz mumkin. Bu tizimning ma'nosi xar kuni topshiriqlar ro'yhatini tuzishga bo'lgan ehtiyojni yo'qotishdir. Ya'ni eslatish tizimida siz har kun uchun rejalar tayyor bo'lgan papkani olasiz. Bu tizimdan foydalanish uchun 43 ta papka yoki fayl kerak bo'ladi. 12 ta papka oylar uchun, 31 ta papka oyning har bir kuni uchun. Papkalarga mos ravishda imzo qo'yish lozim va ularni belgilangan tartibda qo'yish kerak. Barcha papkalar o'z navbati va raqami bilan yuritiladi. Barcha papakalarni bajarilishi kerak bo'lgan vaqtga qarab taxlanadi. Xar kuni ertalab bugungi kun uchun atalgan papkani olasiz. Uning ichidagi ma'lumotlarga ko'z yugurtirib, bo'sh papkani bir oy oldinga olib qo'yasiz. Agar bugungi rejalashtirilgan ishlarning birortasiga ulgimay qolsangiz, papkani keying raqam bilan belgilaysiz. Buning ma'nosi hali tugallanmagan ishlar mavjud degani. Bu vazifalarni bajarish jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasi ham rivojlanib boradi. Turli topshiriqlarni bajarish yoki yaqin vaqt oraliq'ida bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar uchun Allen tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda barcha narsalar quyidagi mezon bilan o'lchanadi.

Stiven Kovi "Muvaffaqiyatli insonlarning yetti ko'nikmasi" nomli kitobida shunday yozadi: "universitetda dars berib yurgan kezlarim, oldindagi maqsadni yutuq-yutuq asosida o'zaro tushunish usulini yaratgan edim. Bu eng yaxshi tajribalarimdan biri bo'lgandi. Bu-biz amalga oshirishga urinayotgan vazifa. Mana bu esa, a'lo, yaxshi, qoniqarli baho uchun asosiy mezonlar. Mening maqsadim har biringizga a'lo baho olish uchun yordam berish. Endi gaplashib olgan narsalarimizni tahlil qiling va xulosa chiqaring. Nimani qilmoqchiligingiz to'g'risida bir qarorga keling. Shundan keyin olmoqchi bo'lgan bahoyingiz va unga erishish uchun nimalar qilish kerakligini birgalikda muhokama qilamiz".

"Yutuq-yutuq" kelishuvini tuzish muhim paradigma almashinuvini talab qiladi. Bunda vazifani bajarish usuliga emas, vazifaning natijasiga e'tibor qaratiladi. Insonning o'ziga xos imkoniyatini yuzaga chiqaradi. [3,82]

Yutuq-yutuqda insonlar o'ziga, o'z ishiga baho beradi. Odamlar o'zlarini baholashda foydalanadigan an'anaviy o'yinlar zerikarli va noqulaydir. Yutuq-yutuqda insonlar, o'zlarini rivojlantirishga qaratilgan mezondan foydalanib o'zlariga baho beradi. Agar mezonni to'g'ri o'rnatgan bo'lsangiz, insonlar unga muvofiq bo'la oladi. "Yutuq-yutuq" asosida vakolatlash kelishuvida, xattoki yetti yosh bolakay ham hovlini "yashil va toza" saqlashga o'ziga va'da beradi.

Bunday kelishuvlarda vazifa bajarilgach, ishlab chiqaruvchini qanday mukofot yoki jazo kutayotgani belgilab qo'yiladi, shu sababli har ikki tomon ham bir-birini alday olmaydi. Barchasi oldindan ayon bo'ladi.

Boshqaruvchilar yoki ota-onalar nazorat qila oladigan asosan to'rt turdagi oqibat (mukofot yoki jazo) mavjud:

- Moliyaviy
- Ruhiy
- Imkoniyat
- Mas'uliyat

Moliyaviy oqibatlarga daromad, nafaqa yoki jarima kabi mablag' bilan bog'liq mukofot yoki jazo kiradi.

Ruhiy oqibatlarga tan olish, tasdiqlash, xurmat, ishonch bildirish yoki yo'qotishdir. Iqtisodiy qiyinchilik bo'lmagan sharoitda kishilarni moliyaviy rag'batga qaraganda ruhiy mukofot ko'proq rag'batlantiradi.

Imkoniyat-ta'lim, taraqqiyot, imtiyozdir.

Mas'uliyat-kuchaytiriladigan yoki kamaytiriladigan vakolat bilan bog'liq.

Ta'lim sohasida o'qituvchilar kelishilgan mezonlarga ko'ra, shaxsning ijrosiga asoslangan baholash tizimini yaratib, talabalarni o'zaro hamkorlikka da'vat qilishi, birga o'rganib, yutuqlarga birga erishishga undashi mumkin. Bu orqali talabalar "yutuq-yutuq" ruhida fikrlash tamoyilini o'rganadi va to'g'ri tizimni yaratibgina qolmay, uni yaxshi yo'lga qo'ya oladilar. Ular keraksiz raqobat va muammoli vaziyatlarni yo'qotib, o'zaro hamkorlikni shakllantiradi va bu orqali samaradorlikka erishadilar.

"Yutuq-yutuq" ruhida fikrlashga- hech qachon yutuq-mag'lubiyat yoki mag'lubiyat-yutuq paradigmasi bilan erishib bo'lmaydi. Harvard universitetining ikki huquqshunos professori R.Fisher va Uilyam Yuri "Rozilik tomon yo'l" nomli foydali va mazmunli kitob yozishgan. Ular ushbu kitobda ayirboshlashning tamoyilli va mavqeli yondashuvlarini bir-biriga taqqoslab ko'rgan. Garchi "yutuq-yutuq" so'zi ishlatilmasada, kitobning ruhi va asosiy falsafasi ushbu yondashuvga mos keladi. Ularning fikricha, tamoyilli muzokaralar mohiyati-insonni muammodan ajratish, mavqega emas, foydaga e'tibor berish, o'zaro manfaat uchun variantlarni kashf qilish va har ikki tomon uchun birdek qadrlil bo'lgan tamoyillar, ob'ektiv mezonlarni taklif qilishdan iboratdir.

"Yutuq-yutuq" shaxs texnikasi emas. Bu shaxslararo munosabatlarning umumiy paradigmasi bo'lib, to'g'rilik, yetuklik, bag'rikenglik kabi xislatlardan kelib chiqadi, yuksak ishonchga asoslangan munosabatlarda unib-o'sadi.

Kredit-modul o'quv jarayonida mustaqil ta'limning asosiy jihatlari:

Maqsadlarni belgilash: Talabalar o'z faoliyati uchun maqsad va vazifalarni mustaqil ravishda belgilash imkoniyatiga ega bo'lib, bu ta'lim jarayoni uchun shaxsiy mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi. Mustaqil ta'lim jarayonida maqsadlarni belgilash kredit-modul tizimida muhim nuqta hisoblanadi. Keling, bu qanday sodir bo'lishini va talabalarga qanday foyda keltirishini batafsil ko'rib chiqaylik. [3,15]

### **1. Maqsadni belgilash jarayoni:**

Maqsadlarni shakllantirish:

-Talabalar o'quv materialini o'rganadilar va o'z qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, mavzuning qaysi jihatlari e'tibor qaratishni tanlashadi.

- Maqsadlar ham umumiy (aniq kurs yoki mavzuni o'zlashtirish), ham maxsus (aniq masalani o'rganish, muayyan muammoni hal qilish) bo'lishi mumkin. Maqsadlarni belgilash va ularni amalga oshirish jarayonida SMART usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

### **2. Shaxsiy javobgarlikni shakllantirish;**

O'zini-o'zi boshqarish:

-Talabalar o'z oldiga o'quv topshiriqlari uchun maqsad qo'yib, o'z vaqtlari va resurslarini boshqarishni o'rganadilar, bu esa o'z-o'zini tarbiyalashning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Mashg'ulotdagi faol pozitsiya:

- Maqsadlarni tanlash qobiliyati talabalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, bu ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi va qiziqishini oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Brain Tracy. Time management (The Brian Tracy Success Library): American Management Association, 2008-1-1.-138 P.
2. GOKARAJU RANGARAJU. Time management: Institute of Engineering and Technology/ India, 1997. 12 C.
3. Devin Allen. Getting things done: New-York 2001, 267 P.
4. Автореферат: НИЗАМОВА ЧУЛПАН ИЛЬДАРОВНА. РАЗВИТИЕ САМООРГАНИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С ПРИМЕНЕНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ: Казань – 2021.
5. Стивен Р.Кови. Муваффақиятли инсонларнинг 7 кўникмаси (Шахсий камолотнинг кудратли курали): “Ofset-print” МЧЖ, “Nihol” нашриёти, 2020. 380 б.